

MODERNIST ELEMENTS IN UZBEK SHORT STORIES

Meyliyeva Gulhayo Quvat qizi

Asian University of Technologies, Uzbek Language and Literature, 1st year master's student

Annotation: This thesis analyzes the artistic interpretation of modernism in contemporary Uzbek short stories, its specific features, and its role in national literature. It demonstrates how writers strive to express a person's inner spiritual experiences through the modernist approach, using stream of consciousness, symbolism, and individual thinking. It also substantiates that in contemporary short stories, traditional realism is being replaced by new artistic explorations.

Keywords: modernism, short story writing, stream of consciousness, psychological depiction, artistic thinking, symbolism, individualism, contemporary literature.

O'ZBEK HIKOYALARIDA MODERNIZM UNSURLARI

Meyliyeva Gulhayo Quvat qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi zamonaviy o'zbek hikoyachiligida modernizmning badiiy talqini, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda milliy adabiyotdagi o'rnini tahlil etiladi. Modernistik yodashuv orqali yozuvchilar insonning ichki ruhiy kechinmalarini, ong oqimi, ramziylik va individual tafakkur orqali ifodalashga intilganliklari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, zamonaviy hikoyalarda an'anaviy realizm o'rnini yangi badiiy izlanishlar egallayotgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: modernizm, hikoyachilik, ong oqimi, ruhiy tasvir, badiiy tafakkur, ramziylik, individualizm, zamonaviy adabiyot.

Аннотация: В данной статье анализируется художественная интерпретация модернизма в современной узбекской новеллистике, его своеобразные особенности и место в национальной литературе. Показано, что писатели

посредством модернистского подхода стремятся выразить внутренние духовные переживания человека через поток сознания, символизм и индивидуальное мышление. Также обосновывается, что в современных рассказах традиционный реализм уступает место новым художественным поискам.

Ключевые слова: модернизм, новеллистика, поток сознания, психологическое изображение, художественное мышление, символизм, индивидуализм, современная литература.

Bugun o'zbek adabiyoti yangicha shaklda yashab, yangicha ijod qilmoqda. Modernizm o'zbek hikoyachiligiga yangi tasvir usullarini kiritdi. Ayrim yozuvchilar asarlarida realizm bilan bir vaqtda ramziy va falsafiy qatlamlarni uyg'unlashtirgan modernistik unsurlar bilan boyitilgan asarlarga murojaat qilishmoqda. "... Demak, istiqlol davri yangi o'zbek asarlarining asosiylari, albatta, an'anadan uzilgan g'uddalar emas, aksincha, o'sha silsilaning davomi o'laroq dunyoga keldi, kelmoqda. Shu bilan birga, erkin badiiy tafakkur mahsuli sifatida o'zini (olam ichra olam, ya'ni bir butun tizim o'laroq) namoyon qilayotgani kishini behad quvontiradi. Bugun yurtimiz ijodkori o'z nuqtayi nazarini qadim Sharq adabiyotida bo'lgani kabi olami sug'ro – mukarram Insonga, uning qalbiga qaratgan. Hamda botindagi murakkab jarayonlarni bayonchilik yo'li bilangina emas (chunki bunday usul bor, bo'ladi va bu tabiiydir), ayni paytda, umuminsoniy va umumzamoniy mezonlarga suyangan holda Majoz vositasida ham qog'ozga tushirmoqdalar, san'atga aylantirmoqdalar..."¹. Avvalo, tahlillarga yuzlanishdan oldin modernizm istilohi ustidagi bahslarga yuzlansak. Bu istiloh biz uchun, Sharq uchun begona tushuncha sifatida qaraydiganlar ham, Cho'lpon ta'biri bilan aytganda: "ko'ngil yangilik qidiradir..." deganidek yangilik istovchilar uchun kerakli deb qaraydiganlar ham bo'ldi. "Modernizm nima?" degan savolga dunyo va o'zbek olimlari ko'pdan beri javob berib kelishadi, aytish joizki, haligacha bu masala ustida

¹ Ulug'bek Hamdam, Abdug'opur Qosimov. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – B.241.

bahslar yakunlangani yo'q. Zero modernizm o'zbek olimi, professor Ozod Sharafiddinov ta'kidlab aytganidek, "modernizm jo'n hodisa" emas. O'zbek adabiyotshunosligida, ayniqsa, istiqlol yillarida modernizm atrofida qizg'in bahslar bo'ldi. Bahslarda modernizmi o'zbek mentalitetiga butunlay yot mafkura yoki, aksincha, modernizm insoniyat badiiy-tafakkur tadrijining bir bosqichi, uni o'qib o'rganishning hech bir zarari yo'q degan turli qarashlar aytili..."²

Yigirmanchi asrning oxirgi choragiga kelib, milliy nasrda zamonaviy G'arb san'atida keng tarqalgan modernizmga xos bo'lgan badiiy ijod namunalari yuzaga kela boshladi. Shuningdek, yozuvchilarimiz badiiy shakl va uslub borasida izlanishlar olib borib, yangi ijod namunalari yaratishmoqda. Dramaturgiya, nasr, va nazmda bu harakatlar birdek ilgarilab borayotganligini dramaturg Sharof Boshbekov, nisbatan yosh shoir va yozuvchilar Nazar Eshonqul, Xayrullo, Bahrom Ro'zimuhammad, Go'zal Begim, Isajon Sulton, Bahor va boshqalar ijodlarida ko'rish mumkin.

Kichik detallar orqali ularni ramz darajasiga ko'tara olgan va bu bilan hikoyaga katta kuch yuklay olgan yozuvchi Bahor hikoyalari o'zining yangicha tabiati bilan o'quvchi etiborini tortadi. "Shamol hikmati" hikoyasida ramz asar ichiga singib ketgan deyish mumkin. Chunki hikoyadagi so'z o'yini va shamol vositasida anglatmoqchi bo'lingan ma'no chuqur mohiyatni yuzaga chiqarib bermoqda. Hikoyada omonatgina ilingan "Bozor" so'zining har shamol esgandagi boshda turgan harfning uzilib yerga tushishida ramziy ma'no chizig'i yuzaga keladi. "Ozor", "zor", "or", "r" so'z o'yinlarining hosil bo'lishi, avvalo, bozorning ozorsiz bo'lmasligi, ortiqcha ehtiyojlarga erk berilsa, ruhning ozor chekishi; hikoyani rivojlantirib turgan mo'ysafid obrazi bozordan "qadr" izlab, uni topolmasdan "zor" bo'lishi, mo'ysafidning izlaganini topolmasdan xo'rlanganidan kelib chiqadigan tuyg'u "or" ning nomidir bu. Shu vaqtda shamol kelib yana bir harfni uchirib ketadi va hech qanday ma'no anglatmaydigan "r" harfning o'zi

² Ulug'bek Hamdam, Abdug'opur Qosimov. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – B.227.

qoladi. Endi insonning insoniyligi ojizlashib, hayvoniyligi kuchaygani, hayvoniylirillashga o'xshash tovush chiqarishiga ishora ko'rsatilyapti. Yerga uchib tushgan harflarning o'zgacha ko'rinishda tizilib qolishi ham yangi mazmunni chiqarib beradi. Boshqa peshtoqdan uchib tushgan harf (parvoz qilib borayotgan qushning qanotlarini eslatuvchi boshqa harf- m)ning qo'shilib "Mozor" bo'lib tizilib qolishida esa, bozorga tirikchilikning vositasi sifatida emas, tiriklikning oliy maqsadiga aylantirish bir kun insonni mozorga yetaklashiga ishora qilib kelinmoqda. "Tongda shamol tindi. Tuproqda abgor yotgan harflar g'alati bir tasodif tufayli avval qanday yozilgan bo'lsa, darvoza yoniga o'shanday terilib qolgan, ammo kechagi bo'ron ko'chadagi boshqa shu kabi yozuvlarni ham uchirib tashlagani bois bozor ostonasiga so'zning bosh harfigina parvoz qilib borayotgan qushning qanotlarini eslatuvchi boshqa bir harf bilan almashib qolgan edi. Hammayoq alg'ov- dalg'ov, faqat mag'ribga tomon bir tomonlama ketgan qadam izlari orasida yangi paydo bo'lgan yolg'izoyoq izgina shundayligicha saqlangan, dovul unga hech bir putur yetkazmagan edi. Bozor yana qizidi... Ammo odamlar yonginalarida SHAMOL qoldirib ketgan HIKMATni sezmadilar..."³

O'zbek adabiyotida bundan oldin ham zamondosh kishilarning fojiiyaviy qismatidan hikoya qiluvchi asarlar yaratilgan. Ularda ko'proq fojealarning kelib chiqish ildizlari, ichki mohiyati o'zgacha shaklda bayon qilingan. Ko'proq realizmga asoslangan voqealar bilan boyitilgan. Bu kabi asarlarda qahramonlar hayot yo'lida adashgan, adolat, ezgulik yo'lida jiddiy qarshiliklarga duch kelgan insonlar sifatida akslantirilgan. Modernizm adabiyotida esa inson yuqoridagidek holatlar bilan bog'liqlikda gavdalanmaydi.

"...Nazar Eshonqulning "Istilo", "Tobut" hikoyalarida asli be'mani g'oyalar – adolatsizlik" shafqatsizlik, zo'ravonlik asosiga qurilgan, inson hayoti va qalbini zabt etib undagi tabiiy, boqiy qadriyatlarni mahv etishga qaratilgan, oqibat- natijada esa halokatga mahkum totalitar tuzum va yakkahokim mafkuraning daxshatli majoziy manzaralari chiziladi. ...Nazar Eshonqulning bu tur hikoyalarida qahramonlarning nomi yo'q- ular faqat "u" yoki hayotdagi amali, kasb-hunari nomi bilan "Kotib", "Qorovul",

³ Sharq yulduzi jurnali, 2014-yil, 5-son.

Me'mor" deb yuritiladi. Insonning ichki va tashqi qiyofasini chizishda anchagina tajriba orttirgan muallif bu xil personajlar tasviriga kelganda bu borada bir qarashda hafsalasizlik qilganday taassurot qoldiradi. Aslida esa shu xil "hafsalasizlikdan" muayyan bir maqsad bor: hikoya personajlari bema'ni, shafqatsiz hayot tazyiqi ostida shu hayotdan begonalashgan , shaxsini, insoniy qiyofasini yo'qotgan yoki yo'qotayozgan kimsalardir..."⁴

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, modernizm o'zbek adabiyoti uchun, qolaversa, hikoyachiligi uchun begona emas. O'zbek yozuvchilari badiiy tafakkur tarziga, ijodiga, o'qiguvchi talabiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan adabiy oqimlardan biridir. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida modernizm badiiy tafakkurning yangilanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, asarlarimizda inson ruhiyati, ichki monolog, psixologizm, ramziy obrazlar va falsafiy mushohada orqali modernistik tamoyillar yorqin namoyon bo'ladi. Yuqoridagi adiblar ijodi modernizmni milliy ruh va mentalitet bilan uyg'unlashtirganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Natijada zamonaviy o'zbek hikoyachiligida inson qalbining murakkab olami, ma'naviy izlanishlari va ruhiy kechinmalari yangi badiiy shakllarda ifoda etilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Ulug'bek Hamdam, Abdug'opur Qosimov. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – 320 b.
- 2.Ozod Sharafiddiniv. Modernizm jo'n hodisa emas// "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 2002. 23-son.
3. "Sharq yulduzi" jurnali, 2014-yil 5-son.
4. Bahor Shukurova . Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi poetikasi. Filol. fan.bo'y. fal. Dok. (PhD) dis. 2024. 11-b.
5. Eshonqul N. "Mendan "men" gacha". – Toshkent: Akademnashr, 2014.
- 6.Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: 2000. 109 b.

⁴ Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: 2000. – B. 9.